O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TRANSPORT VOSITALARINING HAYDOVCHILARINI TAYYORLASH BORASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR

Mustaqil tadqiqotchi Tagayev Jasur Zairovich

jasurtagayev4@gmail.com. tel (97) 677 17 03

https://orcid.org/0009-0001-4047-7634

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida transport vositalari haydovchilarini tayyorlash borasida qabul qilingan qonunlar, qarorlar, farmon va farmoyishlar, ular asosida kiritilgan yangiliklar va o'zgarishlar, shuningdek, mamlakatimizda avtomobil haydovchilarini tayyorlashda yildan yilga yangilanib borayotgan yangiliklar haqida ma'lumotlar beriladi.*

Kalit so'zlar. *Avtotransport vositalari, "Avtotest Report", "Avtotest" va "Avtotest 2.0", "SAR", "PIN-FL", NFC Smart Kard, "Texnik ko'rik", "Yashil chiroq", "Xavfsiz va ravon yo'l" .*

Kirish bo'limi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki davrlarda dastlab transport vositalari haydovchilarini tayyorlash ishlari borasida bir qancha qarorlar va farmonlar qabul qilindi. Xususan avtomototransport vositalari va shahar elektr transporti vositalari haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish va o'qitishning zamonaviy usullarini joriy etish maqsadida 2015-yil 30-aprel kuni Vazirlar Mahkamasining 106-sonli qarori qabul qilinishi ham katta ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Bundan tashqari milliy haydovchilik guvohnomasini berish sohasida 2021-yil 1-apreldan boshlab avtomototransport vositalari va shahar elektr transporti vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyati uchun litsenziyaga ega tadbirkorlik subyektlariga barcha toifadagi avtomototransport vositalarini (trolleybus va tramvaydan tashqari) boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvohnomasini

olish uchun nazariy va amaliy imtihonlarni o‘tkazish huquqi berilishi ham buning yaqqol dalilidir.

Metodlar bo‘limi. O‘zbekiston Respublikasida avtomototransport vositalari va shahar elektr transporti vositalari haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida ta’lim jarayonini yanada takomillashtirish va o‘qitishning zamonaviy usullarini joriy etish maqsadida 2015-yil 30-aprel kuni Vazirlar Mahkamasining 106-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko‘ra, “Avtotest Report” mas’uliyati cheklangan jamiyat tomonidan avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha “Avtotest” va “Avtotest 2.0” mahalliy elektron o‘quv qo‘llanmalari ishlab chiqilganligi; avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun ixtisoslashtirilgan o‘quv qo‘llanmasi yaratilganligi haqidagi ma’lumoti qabul qilinsin. Respublikaning barcha mintaqalarida “Avtotest Report” MCHJning avtomototransport vositalari va shahar elektr transporti vositalari haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ilg‘or o‘quv vositalari, trenajerlar va o‘quv aerodromi bilan jihozlangan zamonaviy o‘quv-metodik komplekslarini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari “Avtotest Report” MCHJning murojaatiga ko‘ra viloyat markazlariga tutash tumanlarda o‘quv komplekslari qurish uchun kamida 3 ga yer uchastkalari bepul foydalanish uchun berilishini bir oy muddatda ta’minlasinlar. Toshkent shahri hokimligi o‘quv kompleksi qurish uchun Vazirlar Mahkamasining “Zarar ko‘rib ishlovchi, iqtisodiy nochor va past rentabelli tashkilotlarning foydalanilmayotgan hududlarini va ortiqcha ishlab chiqarish maydonlarini yanada maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2014-yil 15-iyuldagi 192-son qaroriga muvofiq berilayotgan yer zaxirasi hisobiga “SAR” aviakompaniyasi aerodromining sharqiy qismida, Sergeli tumani, “Bahor” mahallasi manzilida joylashgan umumiy maydoni 3 ga yer uchastkasini o‘quv kompleksi qurish uchun “Avtotest Report” MCHJga bepul foydalanish uchun berilishini ta’minlasin deb ko‘rsatib o‘tilgan.

Natijalar bo‘limi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-martdagi “Milliy haydovchilik guvohnomasi va avtomototransport vositasi ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning yangi namunalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining muvofiqligini ta’minlash maqsadida, 2017-yil 1-oktyabrdan boshlab, bosqichma-bosqich, 1968-yil 8-noyabrda Vena shahrida qabul qilingan “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi konvensiya bilan milliy haydovchilik guvohnomalari va avtomototransport vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazish guvohnomalarini, ularning yangi modellarini ro‘yxatga olish va hisobga olish tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni samarali tashkil etish yo‘lga qo‘yilmoqda. Ular 54x86 mm o‘lchamdagi plastmassadan tayyorlangan bo‘lib, kontrafaktga qarshi mukammal choralarga ega, shu bilan birga u jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (PIN-FL) va maxsus elektron yorlig‘ini (NFC Smart Kard) o‘z ichiga oladi. Ular xorijiy mamlakatlarda qo‘llaniladigan ID-kartalariga o‘xshaydi, ya’ni yangi haydovchilik guvohnomalari identifikatsiya maqomini oldi. Haydovchilik guvohnomasi 10 yil muddatga beriladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 125-son qarorining 5-bandida 2021-yil 1-iyulga qadar Ichki ishlar vazirligi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda avtotransport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlariga axborot xavfsizligi talablarini inobatga olgan holda, Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining “Texnik ko‘rik” avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kirish imkoniyatini yaratish choralarini ko‘rsin deb belgilab qo‘yilgan. Ushbu qaror ijrosini ta’minlash maqsadida bugungi kunda, respublika bo‘yicha jami 209 ta tadbirkorlik subyektlari DYHXXning “Texnik ko‘rik” avtomatlashtirilgan axborot tizimiga ulangan holda ularga tegishli diagnostika stansiyalari tomonidan jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari texnik ko‘rikdan o‘tkazib kelinmoqda. Aholi punktlarida transport vositalarining tezligini soatiga 70 kilometrdan, maktab va maktabgacha ta’lim

tashkilotlari atrofidagi yo‘llarda 300 metrgacha bo‘lgan masofada 30 kilometrdan, turar joy dahalari va yondosh hududlarda (uy-joy binolari orasidagi yer uchastkasida) esa soatiga 20 kilometrdan oshirmasdan harakatlanishga ruxsat etiladi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 4-apreldagi PQ-190-son qarori bilan tashkil etilgan, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasidagi respublika komissiyasining qarori asosida Toshkent va Nukus shaharlari hamda viloyatlar markazlaridagi yo‘l harakati qatnovi yuqori bo‘lgan va aholi gavjum hududlarda transport vositalari harakatlanishining yuqori tezligi soatiga 60 kilometr etib belgilanishi mumkin.

Munozara bo‘limi. Avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish hamda ushbu turdagi faoliyatni amalga oshiruvchi o‘quv tashkilotlari, haydovchilik guvohnomasini olish uchun imtihonlarni o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida 2022-yil 20-iyul kuni Vazirlar Mahkamasi 393-sonli qarorni qabul qildi. Unga muvofiq avtotransport vositalarining va shahar elektr transport vositalarining tuzilishi va ularga texnik xizmat ko‘rsatish fanidan dars beruvchilar, shuningdek, yo‘l harakati qoidalari, avtotransport vositalarini xavfsiz boshqarish va harakat xavfsizligi asoslari fanlaridan dars beruvchi o‘qituvchilar sifatida faqat avtotransport sohasi bo‘yicha oliy ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslar qabul qilinadi. Yo‘l-transport hodisasida birinchi yordam fanidan dars beruvchilar sifatida tibbiyot ixtisosligi bo‘yicha oliy yoki o‘rta maxsus ma’lumotga ega, “Shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish” bo‘yicha instruktor (paramedik) malaka sertifikatiga ega bo‘lgan shaxslar qabul qilinadi. Mashg‘ulotlarning tashkil etilishi shakllaridan qat’iy nazar, avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash kurslarida umumiy o‘quv yuklamasining hajmi haftasiga 20 soatgacha, o‘quv yuklamasining bajarilishidan kelib chiqqan holda auditoriyada o‘tkaziladigannazariy va amaliy mashg‘ulotlarning kundalik hajmi 4 soatgacha rejalashtiriladi. Avtotransport vositalarini boshqarishni

o‘rgatish uchun ajratilgan amaliy mashg‘ulotlarning kundalik hajmi har bir instructor uchun 8 soatdan ortiq bo‘lmagan muddatda amalga oshiriladi. Haydovchilarning malaksi oshirilganligi bo‘yicha beriladigan sertifikatlar faqat elektron shaklda rasmiylashtiriladi va o‘quv tashkilotlari Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati tomonidan yuritiladigan sertifikatlarning yagona elektron ma’lumotlar bazasiga kiritib boradi. Boshqarishni o‘rgatish uchun mo‘ljallangan avtotransport vositalari ushbu transport vositalarining harakat yo‘nalishini nazorat qilish imkonini beradigan GPS qurilmalari bilan jihozlanadi. Amaliy imtihonlarni o‘tkazishda “B” toifa uchun ishlab chiqarilganligiga 5 yildan ortiq bo‘magan, boshqa toifalar uchun ishlab chiqarilganligiga 10 yildan ortiq bo‘lmagan avtotransport vositalaridan foydalaniladi. Avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash Ichki ishlar vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Yagona namunadagi animatsiyali nazariy imtihon savollari 1 000 tadan kam bo‘lmagan miqdorda hamda amaliy imtihonda bajariladigan sinov mashqlari ro‘yxati Ichki ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda transport vositalari haydovchilarini tayyrolash borasida qabul qilinayotgan yangi qarorlar va ularning ijrosini ta’minlash borasidagi farmonlarning qabul qilinishi. Milliy haydovchilik guvohnomasi olish tartibining yildan-yilga soddalashtirilib borishi, haydovchilarni milliy haudovchilik guvohmonasini olishda ortiqcha vaqt va ovoragarchiliklardan xalos etmoqda.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015- yil 30-apreldagi “O‘zbekiston respublikasida avtomototransport vositalari va shahar elektr transporti vositalari haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida ta’lim jarayonini takomillashtirish va o‘qitishning zamonaviy usullarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 106- son qarori.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING “Davlat tomonidan tartibga solinadigan sohalarga xususiy sektorni jalb etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4913-son QARORI.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 125-son qarori ijrosi to‘g‘risida Ichki ishlar vazirligi M A ‘ L U M O T I.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori.